



“MATN” VA “DISKURS” TUSHUNCHALARINI FARQLASH

Abdullayev Begzodbek Xoldaraliyevich

Andijon davlat universiteti, PhD

orcid: 0000-0001-5285-9042

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7989607>

ARTICLE INFO

Received: 22th May 2023

Accepted: 29th May 2023

Online: 30th May 2023

KEY WORDS

Reklama diskursi, reklama aloqasi, diskurs, reklama matni, – axborot dinamikasi.

ABSTRACT

Reklama diskursi va reklama matni tushunchalari o'z vazifasiga ega. Ushbu maqolada ikkisinin ham o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi. G'arb va O'zbek tilshunoslarining fikrlari o'rganildi.

Zamonaviy tilshunoslik ilmida matn va diskurs atamaları parallel ravishda bir – birida farqlanmagan holatda qo'llaniladi. Ular o'rtasida integral va differensial tomonlarni ko'rib chiqsak va hal qiluvchi ahamiyatga nimalar mavjud?

G'arb tilshunosi P.Serio diskursni quyidagi bir qancha tushunchalar bilan izohlaydi:

- nutq;
- frazaviy birlik hajmidagi matn;
- pragmatik nuqtai nazaridan “diskurs” deb ma'lumot (matn)ning qabul qiluvchiga ta'siri (muayyan vaziyat holat va adresat va muayayn joy)ga aytiladi;
- uchinchi holatda diskurs “muloqot”, “suhbat” kabi ma'nolarni anglatib, fikrni bayon etish vositasi sanaladi;
- Benevistning fikricha, “diskurs” deb eksplikatsiyaga muhtoj bo'lmagan nutqqa aytiladi (muloqot ishtirokchilariga birdek ma'lum bo'lgan ekstralingvistik faktorlardan iborat – G.O);
- til birliklarining lison va nutqdagi ifodasi;
- muayyan ijtimoiy guruhga xos muloqot birliklari yig'indisi, masalan, “administrativ diskurs”, “feministik diskurs”;
- matnni tahlil qilish tuzilmasi. Diskurs – bayonotni diskursiv mexanizm nuqtai nazaridan tadqiq qilish, ya'ni matn ichki komponentlarining bir butunligicha o'rganilishi va tadqiq etilishi uchun yaratilgan tuzilma . [1]

Inson ehtiyojidan kelib chiqib, diskursiv muloqotga kirishadi. Shaxs bilan bog'liq diskurs dialogik nutqiy jarayonda hosil bo'ladi.

M.Stabs diskursga quyidagicha ta'rif beradi:

- shakliy jihatdan diskurs gap bo'laklarining hajmidan kelib chiquvchi til birligi;
- diskurs mazmunan tilning ijtimoiy kontekstda qo'llanishiga uzviy bog'liq;
- tashkiliy jihatdan diskurs interaktiv va dialogikdir. [2]



Tilning real voqelikda ijtimoiylashuvi nutqiy jarayon orqali amalga oshadi. Ongimizda axborot sintezlashuvi ham tilimizda mavjud bo'lgan leksik birliklar orqali anglashiladigan tushunchaga qarab rivojlanadi. O'sha tushunchalar nolisoniy birliklar(jest, imo ishora vaxakazo) bilan ham amalga oshishi mumkin.

Sovet va rus tilshunosi, hisoblash tilshunosligi bo'yicha mutaxassis. Demyankov V. Z. "matn" va "diskurs" tushunchalari haqida quyidagi fikrni aytgan:

"Matn va diskurs tushunchalariga ularning asl toifalanishi, etimologiyasi ta'siri haqida mutlaq ishonch bilan gapirish mumkin. Darhaqiqat, lotin tilida dissursus – bu harakatning nomi, matn – bu ob'ektning nomi, harakat natijasi. Shuning uchun matn diskursdan ko'ra ko'proq "moddiy" narsa sifatida aytiladi. Shunday qilib, sahnadagi aktyor ma'ruza matnni (ya'ni ushbu matnni tashkil etuvchi so'zlarni) unutishi mumkin, ammo uning roli haqida diskursi o'zgarmaydi. Va ma'ruzachi matnni unutishi mumkin (yo'qotish, uyda qoldirish, muharrirga berish), lekin uning nutqining diskursini emas. Darhaqiqat, prototipik holatda ular faqat moddiy narsalarni unutishadi yoki yo'qotadilar"[3]

Har qanday matn og'zaki nutqda aynan, o'zining yozma nutq shakliday gramatik birliklar bilan o'xshash bo'lmasa-da, mazmunij jihatdan bir xil bo'ladi. Matn va diskurs bir-biridan lingvistik tarkib jihatdan farqlansa-da, semantic jihatdan bir xil bo'ladi.

Diskurs (frans. discourse; ingl. discourse; lot. discursus; orqa-oldiga yugurmoq; aylanma-takrorlanuvchi harakat; suhbat; nutq) – ekstralingvistik-

pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa omillar bilan boyitilgan izchil matn; voqeaga bog'liq baholangan matn; maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qabul qilingan odamlarning o'zaro ta'siri va ular ongining mexanizmlari (kognitiv jarayonlar)ning tarkibiy qismi sifatida qabul qilingan nutq. Diskurs – "hayotga cho'mgan nutq". Shuning uchun "diskurs" atamasi, "matn" atamasidan farqi jonli hayotga bo'lgan aloqalar bevosita tiklanmaydigan qadimgi va boshqa matnlarga nisbatan qo'llanilmaydi, deyiladi eng keng tarqalgan ta'riflarda.[4]

Demak, "diskurs" hayot bilan aloqalari to'g'ridan - to'g'ri tiklanmaydigan qadimiy va boshqa matnlarga taalluqli hodisa emas. G'arbiy Yevropa tilshunosligida "matn" va "diskurs" tushunchalari o'rtasida aniq farqlashga harakat qilgan ilk olimlardan biri T. van Deyk bo'lib, u : "Diskurs – bu to'g'ri talaffuz qilingan matn, "matn" esa talaffuzning abstrakt grammatik tuzilishi. Diskurs – bu " ... " nutqiga tegishli tushuncha, "matn" esa til tizimi yoki rasmiy lingvistik bilimlar, lingvistik kompetentsiya bilan bog'liq tushunchadir".[5]

Diskurs nutq vaziyatiga qarab hosil bo'ladigan nutqiy jarayondir. Matn esa, avvaldan kommunikativ aloqa uchun tayyorlangan lisoniy material bo'ladi. Diskurs nutqiy munosabatga qarab o'zgarishi mumkin, matn esa o'zgarimas lisoniy birlikka aylanadi.

Diskurs haqida tilshunos olim A. A. Kibrik va uning hammualliflari ham o'z fikrlarini bayon qilgan: "Diskurs – matndan ko'ra kengroq tushuncha. U bir vaqtning o'zida lisoniy faoliyat jarayoni va uning natijasi – va uning natijasida matn paydo bo'ladi".[6]

Insoniyatning ijtimoiy, kommunikativ aloqaga kirishi sababi ma'naviy va moddiy ehtiyojlari tufayli sodir bo'ladi. Ehtiyojlar esa, zamon va makonga qarab o'zgaradi. Bundan kelib chiqib, shuni aytamiz-ki, diskurs davr o'tishi bilan o'zgarib turuvchi hodisadir.

Kibrikning diskursga bergan ta'rifi M.Fuko[7] (Diskurs mohiyatini belgilashda ekstralingvistik omillar u tomonidan birinchi o'ringa chiqadi va lingvistik omillarga nisbatan



hal qiluvchi ahamiyatga ega.) va V. Maas[8] (Bu allaqachon nutqning lingvistik modelidir. Diskurs tushunchasini ko'rib chiqish nutqni matn tilshunosligining koordinata tizimiga kiritadigan matn kategoriyasiga nisbatan qo'yiladi.) N. D. Arutyunova (Diskursni "ekstralingvistik - pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa omillar bilan birgalikda izchil matn" deb tushunadi.))[9] qarashlariga ham juda yaqin.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqsak, Diskurs – murakkab nutqiy kommunikativ hodisa bo'lib, unga matndan tashqari, matnni tushunish uchun zarur bo'lgan ekstralingvistik omillar(intonatsiya, imo-ishora, jest) ham kiradi.

O'zbek olimlaridan Sh. Safarov, O'Q.Yusupov, B.Mengliev, N.Mahmudov, L.Raupova va boshqalarning ham ilmiy faoliyatida diskurs haqida fikr bildirishgan. Ular orasida tilshunos olim B.R.Menglievning fikrlariga e'tibor qaratsak: "diskurs "matn+nolisoniy omillar=diskurs" formulasi bilan muayyanlashtiriluvchi hodisadir, ikki o'lchamli matndan farqli o'laroq, uch o'lchamliligi bilan xarakterlanadi.[10]

Ko'plab tilshunos olimlar diskursni nutqiy xatti-harakat sifatida emas, balki shu jarayon hosilasi sifatida tushuniladi. Shunga ko'ra, unga sotsial, madaniy, mental, lingvokulturologik, gender va o'zaro kommunikativ omillari ta'sir qiladi, ular birgalikda ekstralingvistik omillarga tegishli hodisa hisoblanadi. Bu o'rinda ekstralingvistik omillarni ikkiga bo'lib olamiz: tor va keng omillar. Tor omillarga og'zaki bo'lmagan aloqa vositalari va keng omillar lingvokulturologik va tarixiy-iearxik kontekst, kommunikatorlarning ijtimoiy holati va ijtimoiy rollari kiradi. Matn va diskursni ushbu ajratilgan omillarga nisbatan taqqoslasak, matn faqat tor omillar bilan shakllanadi, diskurs esa tor va keng ekstralingvistik omillar bilan shakllanadi. Matn va diskurs tashkiliy elementlar bilan ham farqlanadi.

Buni B. Z Demyankova so'zlari ham tasdiqlaydi: "Diskurs – bir nechta jumladan yoki gapning mustaqil qismidan tashkil topgan ixtiyoriy matn qismi. Diskurs uchun boshlang'ich tuzilma birlashma, diszyunksiya va boshqalarning mantiqiy munosabatlari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan elementar takliflar ketma-ketligi shakliga ega. Diskurs elementlari: ularning ishtirokchilari, ijro etuvchi ma'lumotlar, taqdim etilgan voqealar va "bo'lmagan voqealar", ya'ni. a) voqealar bilan birga keladigan holatlar; b) voqealarni tushuntiruvchi fon; v) voqealar ishtirokchilarini baholash; d) nutqni voqealar bilan bog'laydigan ma'lumotlar". [11]

Rus tilshunos olimi M.L.Makarov diskursni uch turga ajratadi:

- 1) funksional diskurs – nutqning jarayondagi ifodasi;
- 2) formal diskurs – nutqning og'zaki yoki yozma matnda aks etishi;
- 3) situativ diskurs – muayyan vaziyat, ekstralingvistik omillar natijasidagi kommunikativ jarayonni tadqiq etish. [12]

V.V.Krasnixning "diskurs bu shunchaki yaratilgan matn emas, faoliyat, u nutqiy va fikrlash jarayoni bilan kechadi. Mazkur jarayonda lingvistik va ekstralingvistik unsur birdek faoliyat olib boradi. Diskurs – ichki lingvistik va lingvokognitiv nuqtai nazardan plandagi hodisa. Diskursda nafaqat til, balki tilda tafakkur qilish aspektlari ham yuzaga chiqadi"; N.N.Mironovanning "diskurs – bu lingvistik va ekstralingvistik parametrlarga to'yingan axborot birligidir" degan mulohazalari; yana – E.N.Mishkurov, Ye.V.Sidorov, N.V.Grabovskiy, A.A.Kibriklarning bir-birini to'ldiruvchi munozarali fikrlarini bir tizimga soladi, M.V.Undrisova "diskurs bu –ijtimoiy shartlangan voqeiy yo'nalishga ega ekstralingvistik xususiyatlari bilan olingan nutq, murakkab kommunikativ hodisadir", [1.29] degan xulosaga keladi.



Matn kabi, tanlangan umumiy diskursni tematik jihatdan bo'lish mumkin. Bunday jarayonda ajratib olingan diskurs "xususiy diskurs" deb ataladi. Xususiy diskurs faqat yagona mavzu doirasida asosida quriladi. Xususiy diskurs tarkib jihatdan yana bo'linsa, ko'plab "konkret diskursni" o'z ichiga olishi mumkin bo'lib, ular alohida tugallangan asarlardir.

Demak, konkret diskurs xususiy diskurs tarkibiga kiradi va bir vaqtning o'zida umumiy diskursning birligi hisoblanadi. Konkret diskursda nutq faoliyati natijasida uning tarkibiy qismlari - matnlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Shunday qilib, ma'lum bir ierarxik tuzilma shakllanadi: *umumiy diskurs – xususiy diskurs – konkret diskurs – matn*, unda u yoki bu tarzda matn bilvosita umumiy diskursga o'zining "birligi" sifatida kiradi.[14]

Xususiy diskurs, konkret diskurs va matn yagona mavzu doirasi orqali tavsiflanayotgan va tanlangan mavzu ob'ekti bilan umumlashadi. Xususiy diskursda esa, umumiy mavzu bitta xususiy submavzu (masalan, "do'kon" mavzusi) bilan ifodalanadi, bu esa o'z navbatida konkret diskursdagi aniq mavzular (masalan, "oziq ovqat mahsuloti", "kiyimlar rastasi", "suvinerlar" va.xo.kazo) bilan atalishi mumkin.

Konkret diskurs matni ham bir nechta submavzularga ajratilishi mumkin va barcha matnlar ham o'zlarining asosiy mavzusiga ega bo'ladi. (masalan, "guruch", "poyafzal", "vaza idish"). Xususiy diskurs o'ziga xos nutq va matn umumiy tavsif ob'ektiga ega. Bunday holatda konkret diskursning boshqa barcha submavzulari va unga kiritilgan barcha matnlar xususiy diskursning yaxlitligini ta'minlash uchun hizmat qiladi.

"Yaxlitlilik matnning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida o'zini to'liq diskursda, faqat kengroq tekislikda namoyon qiladi." [13.2]

Xususiy diskurs nutqiy vaziyatda sodir bo'ladigan hodisa bo'lganligi uchun yaxlitligini ta'minlashda faqat ekstralingvistik omillar hizmat qiladi. Natijada uning yaxlitligi zamon va makonda ushbu xolatning davomiyligini cheklovchi kommunikativ sharoitlar muhim ro'l o'ynaydi. Ekstralingvistik omillar va lingvistik cheklovlar ma'lum bir diskursning tugashini va ikkinchisining boshlanishidan ajratib ko'rsatadi va nutqiy vaziyatni o'zgarishiga hizmat qiladi.

Matnning tilshunoslikdagi asosiy xususiyatlari lisoniy yaxlitlik va izchillik desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Matn va diskurs o'rtasidagi farq quyidagi mezonlarga muvofiq amalga oshirilishi mumkin (ularning hech biri mutlaq emas, lekin ularning kombinatsiyasi matn va diskurs o'tasidagi farqlarni tushunish):

1. Yozma matn yoki og'zaki diskurs qatori bo'yicha;
2. Vaziyat tushunchasini jalb qilish orqali: diskurs = matn + vaziyat (kontekst); mos ravishda, matn = diskurs –vaziyat;
3. An'anaviy qarshilik dialog –monologga asoslangan: diskursning interaktivligi (dialoglilik) matndan farqli o'laroq takidlangan, odatda bitta muallifga tegishli;
4. Harakatlar konsepsiyasiga murojaat qilish: matndan farqli o'laroq, diskurs nafaqat tildan foydalanishning maxsus shaklini, balki ijtimoiy o'zaro ta'sirning (kommunikatorlarning jinsi, millati, ijtimoiy va boshqa xususiyatlari muhim ahamiyatga ega);



5. Va boshqa shunga o'xshash mezonlar: Funktsionallik, strukturlik, diskurs, jarayon, mahsulot, matn, dinamiklik, statiklik.[15]

Diskursda vaziyat va adresatning harekteri va dunyoqarashi diskursiv munosabatni qay holatda yakunlanishini belglab beradi. Diskursning yakunlanishi umumiy diskursning shakllanishiga olib keladi.

Diskursning turli tomonlari umumiy uzluksiz cheksiz nutqda uning ayrim qismlarini faqat tematik asoslar (shaxsiy nutqlar) yoki vaqtinchalik birlik va davomiylik (konkret nutqlar) asosida ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Matn keng ekstralingvistik omillardan mavhum bo'lganda diskursdan ajratiladi va ma'lum bir tuzilishga ega bo'lgan va o'zining asosiy xususiyatlari sifatida "saqlab qoladigan" uyg'unlik va yaxlitlik bilan ajralib turadigan lingvistik shakllanishdir.[15.22]

Shunday qilib, diskursda kommunikativ aloqa davomiyliги va muloqot yaxlitligini ta'minlovchi omillar mavjud. Matn esa, mavzu doirasida cheklanishi va diskursning tarkibiy elementi sifatida uchraydigan hodisadir.

Matn va diskurs hodisalari munosabati Ye.S. Kubryakova va O.V. Aleksandrovalar tomonidan haqiqatga yaqinroq tasvirlangan. Ularning qaydicha, "diskurs" va "matn" tushunchalarini to'g'ri anglash uchun ularni kognitiv paradigma doirasida talqin qilish zarur. Kognitiv talqinda matn tugallangan mahsulot sifatida o'rganilishi mumkin, diskurs esa matnlarni hosil qiluvchi jarayondir. Matn bevosita material ob'ekt ko'rinishida o'rganiladi, diskurs biroz murakkab hodisa va uni tahlil qilish uchun so'zlovchining maqsadida pragmatik mo'ljalini aniqlash lozim bo'ladi. Mualliflar ta'biricha, matn va diskurs faqat inson tomonidan erishilgan natijalarni aks ettiruvchi tuzilma sifatida emas, balki "yangi olamni yaratuvchi jarayon" ko'rinishida tasavvur qilinishi kerak. Har bir matnni real voqelikda aks topishi mumkin bo'lgan "imkoniyatdagi olam namunasidir". Matn va diskurs doimiy ravishda inson tafakkuri harakatini aks ettiradi va ushbu harakatni lisoniy voqelantiruvchi vositadir. Oqibatda, diskurs on-line usulida yaratiladigan nutqiy faoliyat mahsulidir.[16]

Xulosa qilib aytganda, diskurs muloqotning murakkab kommunikativ hodisasi bo'lib matn maqomiga ega bo'la oladi, lekin matn diskurs bo'la olmaydi. Diskurs matn sifatida grammatika (to'liq va to'liqsiz gaplarni almashtirish, ismlarning otlashuvi), leksik (sinonimlardan foydalanish san'ati) va paralingvistik qoidalari (imo-ishoralar, mimikalar, pauza, ovoz balandligi) va asosiysi, semantika (so'z tanlash) bilan ajralib turadi. Lekin diskurs turli xil ekstralingvistik omillar bilan shartlanganligi va ularni tarkibiy qismlar sifatida o'z ichiga olganligi uchun lisoniy birlik sifatida emas, nutqiy hosila sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

References:

1. Г. Одилова, Хусусий дискурслар лингвомаданий талқинининг назарияси ва амалиёти (глуттоник дискурс мисолида), ДДА, Фарғона, 2020.
2. Stubbs M. Discourse analysis: the sociolinguistic analysis of natural language. Chicago: University of Chicago Press, 1983. –P.272.
3. Демьянков, В.З. Текст и дискурс как термины и как слова обыденного языка [Текст] // Язык. Личность. Текст: сб. ст. к 70-летию Т.М. Николаевой / Ин-т



славяноведения РАН; отв. ред. В.Н. Топоров. - М.: Языки славянских культур, 2005. с – 49.

4. Дискурс – Языкознание // jazykoznanie.ru; Дискурс. Три подхода к определению дискурса [Электрон ресурс]. URL: <http://jazykoznanie.ru/content/view/60/249/>. Ko'rilgan sanasi: 10.05.2023

5. Валгина, Н.С. Теория текста [Электронный ресурс] / Н.С. Валгина - <http://evartist.narod.ru/text14/01.htm>. - Ko'rilgan sanasi: 20.05.2022

6. Кибрик, А.А. Язык средств массовой информации как объект междисциплинарного исследования [Текст] / А. Кибрик - М., 2008., 117-с.

7. Фуко М. Порядок дискурса // Фуко М. Воля к истине: По ту сторону знания, власти и сексуальности: Работы разных лет. М., 1996.

8. Maatz U. Als der Geist der Gemeinschaft eine Sprache fand. Sprache im Nationalsozialismus. Opladen. 1984.

9. Арутюнова, Н.Д. Понятие пресуппозиции в лингвистике [Текст] / Н.Д. Арутюнова - М.: Изд-во АН СССР, 1973. – С. 84-92.

10. Менглиев Б.Р. Тилда имконият ва воқелик муштараклиги // “Маърифат”, 2013 йил 8 май.

11. Демьянков, В.З. Текст и дискурс как термины и как слова обыденного языка [Текст] // Язык. Личность. Текст: сб. ст. к 70-летию Т.М. Николаевой / Ин-т славяноведения РАН; отв. ред. В.Н. Топоров. - М.: Языки славянских культур, 2005. - С. 34-55.

12. Макаров М.Л. Основы теории дискурса. – М: Гнозис, 2003. – С.280.

13. Ерофеева, Е.В., Кудлаева, А.Н. К вопросу о соотношении понятий ТЕКСТ и ДИСКУРС // Проблемы социо- и психолингвистики: Сб. ст. / Отв. Ред. Т.И. 14. Ерофеева; Перм. ун-т. - Пермь, 2003. - Вып.3. - С. 28 [Электронный ресурс] // psychosocling.narod/erkudl.htm – Ko'rilgan sana: 10.05.2023

14. Ro'ziyeva, N. (2023). Zamonaviy tilshunoslikda matn va diskurs talqini. ilmiy nashrlar markazi (*buxdu.Uz*) , 29 (29). <http://journal.buxdu.uz/index.php/journals> 16. Матн ва унинг ички структур-семантик хусусиятлари. <http://samxorfil.uz/yangiliklar/matn-va-uning-ichki-struktur-semantik-hususiyatlari>. Ko'rildi: 21.05.2023